TIL O`RGANISHDAGI SAMARALI OMILLAR

Isroilova Shoxida Dexqonovna

Farg`ona shahar yuridik texnikumi yuristlar

uchun ingliz tili fani o`qituvchisi

Annotatsiya: Mazkur maqolada til o`rganishdagi samarali omillar, metodologiya hamda yo`nalishlar muhokama etiladi.

Kalit so‘zlar: Xorijiy til, metod, o`qitish, ko`nikma, texnologiya.

KIRISH

Ma’lumki, chet tilni amaliy egallash shu tilda nutqiy ko‘nikma va malakalarni hosil qilish demakdir. Ko‘nikmalar leksika, grammatika, talaffuz bo‘yicha, malakalar esa tinglab tushunish, gapirish, o‘qish, yozuv faoliyatlarida shakllantiriladi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI VA EMPIRIK TAHLIL

Oddiyroq aytganda, chet tilda gapirish, tinglab tushunish, o‘qish va yozuvni nutq faoliyati turlari sifatida egallash alohida mashqlarni talab etadi. Chunonchi, til va nutq birliklari hisoblanmish so‘z, jumla, matn kabilarni o‘rganishda mashqlarning bajarilishi metodik jihatdan o‘zini oqlaydi.

Bu esa kasbiy yo‘nalish doirasida til bilish, so‘zlashuv ko‘nikmalariga ega bo‘lish va ijtimoiy–madaniy va kommunikativ–muloqot malakalarini takomillashtirishga xizmat qiladi. Nutq faoliyatini tashkil qiluvchi unsurlar – tinglab tushunish, gapirish, o‘qish va yozuv ko‘nikmalarini rivojlantirish masalalariga alohida e’tibor beriladi va tegishli ko‘nikma va malakalar takomillashtiriladi. Chet tilni amaliy o‘rganishda tor ilmiy sohadagi xorijiy manbalardan axborot olish, umumpedagogik, ijtimoiy-siyosiy va mutaxassislikka oid (masalan: harbiy texnika, qishloq xo‘jaligiga oid) matnlarni lug‘atsiz va lug‘at yordamida o‘qiy olish va o‘rganilgan material asosida og‘zaki suhbatlashish va o‘zgalarga axborot bera olish malakalarini rivojlantirish ko‘zda tutilgan.

Chet tilda matn ustida ishlash jarayonida yangi so‘zlarni o‘rganishda quyidagi texnika mos keladi:

- barcha yangi so‘zlarni, eng yaxshisi kartochkalarga yozib borish; har bir so‘z bitta kartochkaga yoziladi (old tomoniga nemischa – orqa tomoniga o‘zbekcha);

- kartochkalarga imkon qadar ko‘proq so‘zga aloqador va mazmun jihatidan bog‘liq matnlar yozilishi lozim: misollar, chizmalar, grammatik ma’lumotlar, fonetik eslatmalar, hatto chet tildagi yordamchi vositalarni yozib qo‘yish mumkin;

- doimo kartochkalarni birma-bir ko‘zdan o‘tkazish lozim, o‘zlashtirilgan kartochkalarni chetga qo‘yish, hali o‘zlashtirilmaganlarini yana yodlash lozim bo‘ladi; hattoki o‘zlashtirilgan so‘zlarni ham vaqti-vaqti bilan takrorlab turish lozim;

- kartochkalarni har xil guruhlarga ajratish, juft so‘zlar (masalan: sinonimlar, antonimlar) sifatida semantik qatorda o‘rganish, qo‘shimcha ma’lumotlar orqali to‘ldirish va b. [3].

- Bir va undan ortiq tilni egallashdan qat'iy nazar o`quvchi-talabada (har qanday kishida ham) muayyan til tajribasi hosil bo‘ladi. Til o‘qitishda ularni nutqiy, lisoniy va lingvistik tarkiblar tarzida talqin qilinadi. Nutqiy tarkib deganda, muloqot malakasi, ya'ni axborot yetkazish va o‘zgalar fikrini idrok etib tushunish, lisoniy tarafida esa axborot olish va berish maqsadida til hodisalaridan foydalanish va, nihoyat, "lingvistik jihat"dan til hodisalariga doir bilimlar nazarda tutiladi. Har uch qism bir butun "til bilish" tushunchasini hosil qiladi [1].

Ona tilidan keyin o‘rganiladigan har qanday tilga "ikkinchi til" sifatida qaraladi. Respublikamiz ta'lim muassasalarida tahsil olayotgan o‘zbek o`quvchi-talabalariga rus tili, rus o`rganuvchilari uchun esa o‘zbek tili "ikkinchi til" maqomida o‘rganiladi. Ikkinchi tilni o‘rganish ona tilidagi til tajribasiga suyanish bilan birga chet tilni o‘rganishga muayyan ulush qo‘shadi. Ikkinchi tilni o‘zlashtirishda ham muayyan qiyinchiliklar kelib chiqishi tabiiy, ya'ni oldin o‘zlashtirilgan ona tili hodisalari uni o‘rganishga ijobiy (fatsilitatsiya) yoki salbiy (interferensiya) ta'sir ko‘rsatishi mumkin. Interferensiya hodisasi bo‘yicha respublikamiz va xorij olimlari tomonidan qator ilmiy tadqiqot ishlari olib borilgan [3].

Til tajribasi, dastavval, ona tili ta'sirida shakllanadi, ikki va undan ortiq tilda so‘zlashuvchilarda esa uning tegishli qatlamlari oshib boradi. Oqibatda, xotira va tafakkurda nutqiy, lisoniy va lingvistik tarkiblar rivojlanishiga olib keladi. Fikrni ifodalashda turli tillarga oid vosita va usullar ishga tushadi. Shu tufayli bir til doirasida ichki va tillararo salbiy (interferensiya) yoki ijobiy ta'sir (transpozitsiya/fatsilitatsiya) xususiyatlariga ta'lim jarayonida farqlab yondashish muammosi paydo bo‘ladi.

Ilmiy tadqiqotlarda o`quvchi-talabalar til tajribasi (TT)da yuz beradigan psixolingvistik hodisalar haqida fikr yuritilgan: (a) ona tilidan ikkinchi tilga (TT1dan TT2ga), (b) ona tilidan chet tilga (TT1dan TT3ga), (v) ikkinchi til(rus tili)dan chet tilga (TT2dan TT3ga), (s) ona tili va ikkinchi tildan chet tilga (TT1-TT2 dan TT3ga) bo‘ladigan ijobiy va salbiy ta'sir natijalari tadqiq qilingan [4].

O`quvchi-talaba chet til o‘rganishga kirishar ekan dastlab ona tilida muloqot yuritadi. Ona tilida o‘zlashtirilgan og‘zaki va yozma nutq ko‘nikma va malakalarini chet til ta'limiga tatbiq etadi.

O`quvchi-talabalar ikkinchi va chet tilni egallashda ona tilidagi til tajribasi, ya'ni ikki va uch tillilikni o‘zlashtirishni hisobga olish maqsadga muvofiqdir. Nutqiy (malaka darajasida), lisoniy (ko‘nikma shaklida) va lingvistik (til birliklari) hodisalar tilni puxta egallashga qaratilgan mashqlarning asosiy tizimini tashkil etadi. Ona tili yordamida o‘rganilgan yoki o‘zlashtirilgan bilimlar ikkinchi yoki chet til o‘rganish chog‘ida amaliy ahamiyat kasb etadi. O‘z tilida shakllangan bilimlarni o`quvchi-talaba o‘zga til so‘zlari yordamida o‘zlashtiradi. Ona tili boshqa tillarni, xususan chet tilni o‘rganishda asos vazifasini o‘taydi [1,4].

XULOSA VA MUNOZARA

Nutqiy mavzularni tanlashda, albatta, o‘qitish metodikasining muayyan mezonlariga asoslanadi: (1) mavzular nutq malakalarini shakllantirish uchun xizmat qilishi lozim; (2) o‘qitish sharoiti va imkoniyatlarining mavjudligi hisobga olinadi; (3) mavzularni tanlashda o‘zlashtirishning retseptiv va (re)produktiv xususiyatlariga e'tibor qaratiladi. Binobarin, og‘zaki nutq va o‘qish uchun alohida mavzular tanlanadi.

Chet tilda nutq faoliyatining reproduktiv (gapirish, yozuv) va retseptiv (tinglab tushunish va o‘qish) turlarini egallash bir-biridan farq qiladigan metodikani qo‘llashni talab etadi. Bu esa chet tilni amaliy egallashda muhim ahamiyat kasb etadi.

ADABIYOTLAR RO`YXATI

1. O’rinboev, A. (2023). STRATEGIC PROJECT MANAGEMENT FOR SCIENTIFIC WEB APPLICATIONS: LESSONS LEARNED AND FUTURE TRENDS. Current approaches and new research in modern sciences, 2(9), 9-13.

2. Norbutayev, M., & Urinov, A. Y. (2023, October). THE RELEVANCE OF THE HUMAN FACTOR IN THE WORLD OF MODERN TECHNOLOGIES. In Conference on Digital Innovation:" Modern Problems and Solutions".

3. Abdurakhimovich, U. A. (2023). The Vital Role of Web Programming in the Digital Age. Journal of Science-Innovative Research in Uzbekistan, 1(6), 42-51.

4. O’rinboev, A. (2023). OPTIMIZING PERFORMANCE IN A DENTAL QUEUE WEB APP. Development of pedagogical technologies in modern sciences, 2(9), 5-9.

5. Norbutayev, M., & Urinov, A. Y. (2023, October). THE RELEVANCE OF THE HUMAN FACTOR IN THE WORLD OF MODERN TECHNOLOGIES. In Conference on Digital Innovation:" Modern Problems and Solutions".

6. Norbutayev, M., & Urinov, A. Y. (2023, October). THE RELEVANCE OF THE HUMAN FACTOR IN THE WORLD OF MODERN TECHNOLOGIES. In Conference on Digital Innovation:" Modern Problems and Solutions".,

7. Murtazaeva, F. R. (2020). PHILOSOPHY OF “FEMALE PROSE”. Scientific reports of Bukhara State University, 3(3), 195-195.

8. Муртазаева, Ф. (2021). Сюжетно-композиционное своеобразие «женской прозы». АКТУАЛЬНОЕ В ФИЛОЛОГИИ, 2(2).

9. Муртазаева, Ф. Р., & Пардаева, З. Ж. (2020). Теоретические аспекты исследования творчества Виктории Токаревой. Modern Humanities Success, (2), 272-276.

10. Муртазаева, Ф. Р. (2019). ХУДОЖЕСТВЕННАЯ ФИЛОСОФИЯ" ЖЕНСКОЙ ПРОЗЫ". Актуальные проблемы гуманитарных и естественных наук, (12), 95-98.